

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI XALQ
TA'LIMI BOSHQARMASI**

**TO'RAQO'RG'ON TUMAN
XALQ TA'LIMI MUASSASALARI
FAOLIYATINI METODIK
TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH
BO'LIMI**

Boshlang'ich ta'lim metodisti

AKBAROVA MUNIRANING

**4-sinf Odobnoma fanidan “O'quvchilarni
bilimidagi bo'shliqlar”ni to'ldirish
yuzasidan tayyorlagan**

**METODIK
TAVSIYASI**

Ushbu metodik tavsiya boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib o'qish va odobnoma fanlaridan O'zbekiston - madaniy va ma'naviy me'roslariga boy o'lka mavzusini o'rganish jarayonida Najmiddin Kubro haqida to'liq ma'lumot berishda o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirishda ijodiy foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Tuzuvchi: M. Akbarova XTMFMTTEB
boshlang'ich ta'lim metodisti.


Taqrizchilar: 1) M. Payziboyeva, S. Nuriddinova
viloyat xalq ta'limi boshqarmasi
boshlang'ich ta'lim metodistlari.

2) A. Qaxxorov XTMFMTTEB
mudir o'rinbosari.

Ushbu metodik tavsiya TXTMFMTTEB metodika kengashining 2015 yil yanvar dagi ____-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.

**Najmiddin Kubro va uning shogirdlari mavzusini
o'tish va o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish
yuzasidan.**

METODIK TAVSIYA



**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan 2013-2014- o'quv yilining yakunida
o'tkazilgan ta'lim sifati monitoringi natijalari asosida
o'quvchilarning bilimlarida aniqlangan bo'shliqlarni
to'ldirish bo'yicha Najmiddin Kubro va uning
shogirdlari mavzusini o'tishda quyidagilarga e'tibor
berish kerak.**

1. Darsning maqsadini to'g'ri tanlay olish.

Darsning ta'limiy maqsadi:

O'quvchilarga shayx Najmiddin Kubro haqida to'liq ma'lumot berish, uning ma'naviy me'rosini o'rganish, DTS talablari asosida bilim berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirish, buyuk ajdodlarimiz tarixiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O'quvchilarni buyuk allomalar va ajdodlar merosini o'rganish orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlari va milliy g'urur hissini rivojlantirish.

2. Dars turi, jihozi va usullariga e'tibor berish.

Darsning turi: Noananaviy, interfaol.

Darsning jihozi:

Slayd, test savollari, tarqatmali materiallar, ko'rgazmali qurollar, www.ziyouz.com, <http://kh-davron.uz/> saytlaridan olingan ma'lumotlar.

Darsning usuli:

Suhbat, bahs-munozara, savol-javob, ko'rsatish, tushuntirish, interfaol.

3. Yangi mavzuni tushintirish: Najmiddin Kubro va uning shogirdlari.

O'zbekiston - madaniy va ma'naviy me'roslariga boy o'lka mavzusini o'rganish jarayonida Najmiddin Kubro haqida ma'lumot berib boriladi.

Biz ajdodlarimiz qoldirgan madaniy va ma'naviy yodgorliklar bilan har qancha faxrlansak arziydi. Ular yaratgan asarlar, kashfiyotlar biz uchun ma'naviy meros hisoblanadi.

Tarixda buyuk tabib sifatida tanilgan zot bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinodir. Butun dunyodagi tibbiyot sohasi mutaxassisleri hozirgi kunga qadar u yaratgan ko'p jildli «Tib qonunlari» kitobiga tayanadilar. Meditsina so'zi ham «ma-dadi Sino» degan ma'noni bildiradi.

Vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning nomi esa butun islom olamida hurmat-ehtirom bilan tilga olinadi. U eng ishonchli hadislarni to'plab, «AI-Jome' as-sahih» kitobini tuzdi. Bu

kitob islom dinida «Qur'on»dan keyingi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniyning kitoblaridan qadimgi davrlar va odamlar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'qiymiz.

Yevropada al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad al-Farg'oniy esa o'z kashfiyotlari bilan dunyoni lol qoldirgan. U Misrdagi Nil daryosi suvi sathini olchaydigan asbobni ixtiro qildi. Bu kashfiyoti bilan u minglab odamlarning hayotini suv toshqinidan asrab qoldi.

Mirzo Ulug'bek Samarqandda rasadxona barpo ettirib, yulduzlar ilmini o'rgandi. Uning «Ziji Ko'ragoniy» asarida 1018 ta yulduzning falakdagi o'rnini aniq ko'rsatib berilgan.

Buyuk ajdodlarimiz nomi hamisha barhayot. Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiyga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad al-Farg'oniy xotirasiga muhtasham haykallar o'rnatilgan.

Yurtimiz tarixiy obidalarga ham boy. Dunyo ahli Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarini bir ko'rsam, deya orzu qiladi Turli davrlarda bunyod etilgan me'moriy obidalar tariximizning naqadar ulug'vorligidan dalolat berib turibdi.

Shu bois ham bobomiz Amir Temur o'zi qurdirgan Oqsa-roy peshtoqiga «Qudratimizga shak-shubhangiz bo'lsa, biz qurdirgan binolarga boqing», deb yozdirgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har bir fuqaro xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashi lozimligi qayd etilgan. Bunday yodgorliklar umumxalq boyligi hisoblanadi va ularni qasddan yo'q qilish jinoyatdir.



Yuqoridagi manbaalarni o'quvchilarga berish bilan birgalikda www.ziyouz.com <http://kh-davron.uz/> saytlaridan olingan Najmiddin Kubro haqidagi ma'lumotlar ham o'quvchilarga yetkaziladi va o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar to'ldiriladi.

Mashhur shayx, yirik tasavvuf olimi, xalq qahramoni va otashnafas shoir Najmiddin Kubro Xiva yaqinidagi hozirgi Sayot qishlog'ida tug'ilgan. Uning to'liq ismi - Ahmad ibn Umar Abuljannob Najmiddin al-Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy. «Shayxi valiytarosh» - «Avliyolar yetishtiradigan shayx» nomi bilan shuhrat qozongan bu ulug' inson tasavvufdagi mashhur kubraviya tariqatiga asos solgan. Bu tariqat ahllari xufiya zikrni targ'ib etganlar. Kubraviya ta'limoti asosan Markaziy Osiyo va qisman Eronga tarqalgan.

Najmiddin Kubroning o'nga yaqin asarlari fanga ma'lum. Uning, ayniqsa, «Al-usul al-ashara» («O'nta usul»), «Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol» («Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi»), «Risalat ul-hoif ul-hoim an lavmat il-loim» («Qo'rquvchi ovvoralar va malomat etguvchi malomatiylar haqida»), «Tafsir», «Sharh us-sunna val-masolik» («Sunna va ezguliklar sharhi») kitoblari mashhur. Kubro o'z asarlarini asosan arab tilida yozgan. Faqat boshlovchi so'fiylar uchun qo'llanma sifatida yaratilgan «Fi odob us-solikin» («Soliklar odobi

haqida») asari va ruboiylarini forsiyda bitgan. Ingliz sharqshunosi J.S.Trimingem «Soliklar odobi haqida» asari tasavvufning eronlashuvida muhim bosqich boʻlganligini qayd etadi.

Najmiddin Kubro islom ahkomlari va tasavvuf talablarini xalq oʻrtasida nazariy jihatdan targʻib-tashviq qilish bilangina kifoyalanmay, oʻzining mardona xatti-harakati bilan uni amalda ham koʻrsatadi. Gap shundaki, moʻgʻul galalari Xorazm tuprogʻiga bostirib kelganida u boshqa oʻlkalardan kelgan muridlarining begona zaminda oʻlib ketishlarini istamay, ularni tugʻilgan yurtlariga joʻnatib yuboradi, oʻzi esa shahar mudofaasiga oʻtlanadi. Shogirdlarining birga ketish toʻgʻrisidagi takliflariga javoban: «Men shu yerda shahid boʻlaman. Menga Xorazmni tark etishga ruxsat yoʻq!» - deydi va qoʻliga shamshir tutib, qoʻyniga tosh toʻldirib, yov qarshisiga chiqadi. Ularga tosh otadi, bir nechtasini nayza bilan urib yiqitadi. Dushmanlar unga kamondan oʻq uzadilar. Oʻqlardan biri Shayxning koʻkragiga sanchiladi. Shahid boʻlayotgan paytda u dushman qoʻlidan bayrogʻini tortib olib, shu darajada mahkam siqib ushlaganki, oʻn kishi

bo‘lib ham uning qo‘lidan bayroqni olisholmagach, barmoqlarini kesishga majbur bo‘lishgan.

Kubro Xorazmda katta xonaqoh qurdirib, o‘z diniy maktabini yaratadi. Kubro kishilarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da’vat etdi. Uning tarbiyasini olgan yuzlab odamlar ma’rifatdan bahramand bo‘ldilar. Kubroning shogirdlari Majdiddin Bag’dodiy (1209-1219 y.v.e.), Sa’diddin Humaviy (1252 y.v.e.), Najmiddin Doya (1256 y. v.e.) tasavvuf tarixida nom qozongan shayxlardir.

4. O‘quvchilarga berilgan manbaalarni eslarida saqlab qolish uchun quyidagi test topshiriqlari bajartiriladi.

Quyidagi topshiriqni daftarlarida bajaradilar.

1. Tibbiyot ilmining sultoni -_____.
2. _____ hadislarni topib, targ'ib etgan.
3. Ahmad al-Farg'oniy Yevropada _____ nomi bilan mashhur.
4. Mirzo Ulug'bek _____ da_____ barpo ettirgan.

5. Najmiddin Kubroning shogirdlari

5. O'quvchilarga berilgan manbaalarni eslarida saqlab qolishi va olgan bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi.

1. Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz? Ularning qaysi jihatlaridan o'rnak olsak arziydi?
2. Dunyoning qaysi shaharlarida ajdodlarimiz haykallari o'rnatilgan?
3. Ma'naviy-madaniy merosni avaylab-asrash deganda nimani tushunasiz?
4. Buyuk ajdodlarimizdan birining hayoti, ijodi haqida ma'lumot to'plang va daftaringizga yozing.

6. Test topshiriqlarini to'g'ri bajargan savollarga to'g'ri javob bergan darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantirib baholanadi.

7. Uyga vazifa beriladi. Dars davomida olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash, mustaqil ishlash.